

## Pedagogical Significance Of Abdurauf Fitrat's Drama "Abulfayzkhan"

A. Abdulloh

Mother Tongue and Literature Teacher  
Bukhara Region Technical School No. 2  
E-mail: [Abdulloh.5@gmail.com](mailto:Abdulloh.5@gmail.com)

***Annotatsiya:** This article examines Abdurauf Fitrat's drama "Abulfayzkhan," a seminal work in the development of Uzbek dramaturgy, and analyzes its pedagogical significance in youth education. Through thematic analysis, the article demonstrates how this piece, which chronicles the tragic pages of our national history and heritage, stands as the author's masterpiece. Furthermore, the paper provides a comprehensive evaluation of the drama's core ideology, its character system, and the educational insights derived from the narrative.*

***Kalit so'zlar:** nation, attention, tragedy, artistic thought, faith, action, consequence, pedagogical impact.*

### **Kirish.**

Abdurauf Fitrat adabiyotimiz tarixida dramaturg, shoir, olim, o'qituvchi va nosir sifatida juda katta o'rin egallaydi. A. Fitrat 1886-yilda Buxoroda ziyoli oilasida tug'ilgan. U Buxoro, Istanbul madrasalarida hamda dorilfununlarida o'qiydi. A. Fitrat arab, turk, fors tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o'zlashtiradi. U hayoti davomida faqat ijod bilan shug'illandi va barchaga birdek yoqadigan juda ham ko'p asarlar yaratdi.

Ayniqsa, 1916- 1934-yillarda dramaturgiya sohasida barakali ijod qildi. Biz uning dramaturgiya sohasidagi dramalarini o'qib ko'zimizga yosh olamiz yoki usha dramada qatnashayotgan obraz-larga achinib ketamiz, qayg'uramiz. Misol qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan „Abulfayzxon“ dramasi, „Arslon“ dramasi va boshqa dramalar.

A. Fitrat bir nechta dramalar yozgan. Shular-dan ayniqsa, 1924-yilda yaratilgan 'Abulfayzxon' tragediyasini Fitrat dramaturgiyasining cho'qqisi deyish mumkin. 'Abulfayzxon' dramasi syujetining ekspozitsiyasi — dramada Buxorodagi Ashtarxoniylar sulolasining oxirgi namoyandasi Abulfayzxonning hokimiyatining tanazzuli va Mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishi aks ettirilgan. Asarning bosh qahramoni Abulfayzxonidir. Boshqa qahramonlar Ulfat va Davlat, otaliq Hakimbiy, Nodirshoh va otaliq Farhod kabilar sanaladi. 'Abulfayzxon' dramasi barcha voqealari Abulfayzxon saroyida kechadi. 'Abulfayzxon' dramasi tuguni - XVIII asr Buxoro hayotida olib yozilganligidir. O'sha davrdagi xonlarning bir- biriga qilgan zulmlari, xiyonatlari, bir -birini o'ldirishlari bularning barchasi ham bu asarning tuguni sanaladi. 'Abulfayzxon' dramasi voqealar rivoji Abulfayzxon taxtni egallagach eng yaqin kishilaridan ham shubhalana boshlagani va ko'pini hibsga olib qatl ettirgani. Shu qatorda Abulfayzxonning kuchi aqlida emas, podshohligida, xolos. Uning atrofidagilar ham o'ziga yarasha. Yanada to'g'rirog'i, ishni gapni unga yoqadigan yo'sinda tutadiganlar.

Abdurauf Fitrat adabiyotimiz tarixida dramaturg, shoir, olim, o'qituvchi va nosir sifatida juda katta o'rin egallaydi. A. Fitrat 1886-yilda Buxoroda ziyoli oilasida tug'ilgan. U Buxoro, Istanbul madrasalarida hamda dorilfununlarida o'qiydi. A. Fitrat arab, turk, fors tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o'zlashtiradi. U hayoti davomida faqat ijod bilan shug'illandi va barchaga birdek yoqadigan juda ham ko'p asarlar yaratdi. Ayniqsa, 1916- 1934-yillarda dramaturgiya sohasida barakali ijod qildi. Biz uning dramaturgiya sohasidagi dramalarini o'qib ko'zimizga yosh olamiz yoki usha dramada qatnashayotgan obraz-larga achinib ketamiz, qayg'uramiz. Misol qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan „Abulfayzxon“ dramasi, „Arslon“ dramasi va boshqa dramalar.



A. Fitrat bir nechta dramalar yozgan. Shular-dan ayniqsa, 1924-yilda yaratilgan ‘Abulfayzxon’ tragediyasini Fitrat dramaturgiyasining cho‘qqisi deyish mumkin. ‘Abulfayzxon’ dramasi syujetining ekspozitsiyasi - dramada Buxorodagi Ashtarxoniylar sulolasining oxirgi namoyondasi Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishi aks ettirilgan. Asarning bosh qahramoni Abulfayzxonidir. Boshqa qahramonlar Ulfat va Davlat, otaliq Hakimbiy, Nodirshoh va otaliq Farhod kabilar sanaladi. ‘Abulfayzxon’ dramasining barcha voqealari Abulfayzxon saroyida kechadi. ‘Abulfayzxon’ dramasining tuguni - XVIII asr Buxoro hayotida olib yozilganligidadir. O'sha davrdagi xonlarning bir- biriga qilgan zulmlari, xiyonatlari, bir -birini o'ldirishlari bularning barchasi ham bu asarning tuguni sanaladi. ‘Abulfayzxon’ dramasining voqealar rivoji Abulfayzxon taxtni egallagach eng yaqin kishilaridan ham shubhalana boshlagani va ko'pini hibsga olib qatl ettirgani. Shu qatorda Abulfayzxonning kuchi aqlida emas, podshohligida, xolos. Uning atrofidagilar ham o'ziga yarasha. Yanada to'g'rirog'i, ishni gapni unga yoqadigan yo'sinda tutadiganlar.

Abdurauf Fitrat ijodi hammamizga ma'lum va mashhurdir. Buyuk ustozning “Abulfayzxon” dramasi buning yorqin dalili. Fitrat bu asarida bir millat egalaringning axloqi, ish yuritish yo,,llari tartibi, tarbiyasi haqida chin so,,zlarni aytdi, rost so,,zlarni qog,,ozga tushirdi. Asar yozilishidan aslida maqsad nima edi? Nega hamma joyda oqni qora deyidigan bir paytda Fitrat domla faqat rost so,,zlarni yozdi. Chunki ustoz yurt kuyunchagi, millat ertasi haqida o,,ylar edi. Ustozga shon-sharaf emas balki, uning yoziqlaridan chiqarilgan xulosalar va ularning amaliyotlari kerak edi. Demak asar haqida bizning fikrlarimiz bunday.... Bugun juda ko,,p tanqidiy tahliliy yillarda nazm va nasr faol. Biz asl ma'nosini ochishga bel bog,,lagan dramamiz ham chuqur ma'noli asardir. Asar boshlanishida shaxmat o,,yinini o,,ynayotgan yurt boshqaruvchilarini ko,,ramiz. Aslida nega aynan shaxmat? Boshqa o,,yin emas. Yurtni boshqarish o,,rniga, xalq manfaatini o,,ylash o,,rniga bekorchilar kabi tutib o,,zlarini shaxmat o,,ynashlari aslida mamlakat siyosatidan, Abulfayzxon davridan, uning atrofidagi insonlardan xabar beradi. Birinchi Prezidentimiz aytgan edilar: “Yoshlarimizning bosh vaqti, dushmanlarimizning ish vaqti” deb. Bu haqiqat vazir- u ayonlar turli o,,yinlar bilan band bo,,lgan bir paytda Nodirshoh o,,z maqsadlarini amalga oshira boshlagandir. Shaxmat o,,yinida ham ramziylik bor, o,,yinda kimdir yutadi kimdir esa yutqazadi, kimdir shoh, yana kimdir piyoda. Abulfayzxon taxt uchun nimalar qilmadi deysiz o,,z akasini o,,ldirdi, islomdan xalovat izlang deganlar nahotki o,,sha paytlar yani akasini o,,ldirgan paytlar dinni anglagan sifatlar xonni yonida emasdilar. Kechalari uxlayolmay, qotiliga aylangan insonlar ruhi xonni bezovta qilishi hammasi tabiiy hol. Gunohlar qachon tug,,iladi bilasizmi? Ular e'tiborsizlikdan tug,,iladi deyishadi mashoyihlar. Dramada chuqur ma'no yashiringan, asarning har bir bandi tahlil qilishga arzigulik. Keling asarda qay darajada e'tiborsizlik va ilmsizlik ma'naviy qashshoqlik borligini ochishga urinamiz. Buyuk sohibqiron nomi bilan yetti iqlimga dong taratgan Amir Timur juda adolatli edi, rostgo,,y edi. O,,z dushmanlarini ya'ni Nodirshohni sohibqiron darajasiga olib chiqishlarini o,,zi mana shu aslida tubdan qulash, ildizlar darz ketishi. Nodirshoh biznikilardan ancha aqlli edi va shuning uchun ham g,,alabaga erishdi. Amir Temur “Ko,,kda yagona Alloh, yerda yagona xoqon” [1.23.]degan shiorga amal qilgan buyuk davlat arbobi edi. E'tibor beradigan bo,,lsak, buyuklarda maqsadlar ham fikrlar ham mustaqil va qa'tiy bo,,lgan. Bizning qahramonimiz Abulfayzxon esa o,,zining fikrlarining o,,rnini Ulfat va Davlatning fikrlariga berdi, bir so,,z bilan aytganda, kaltabinligi tufayli mag,,lubiyatga uchradi. Bu ishlar voqealar adolatsizliklar ortida juda ko,,p sabablar va kimlarningdir g,,arazli maqsadlari bor edi. Asarda, Ibrohimbiy obraziga ko,,zimiz tushar ekan, unda adolat kabi kerakli tamoyillarni ko,,ramiz. U davlatning faqat bugunini, balki ertasini o,,ylar edi. Chog,,ir ichib e'tiborsiz yashayotgan xonga emas, aslida butun millatga achinar edi. Ibrohimbiy kabi o,,ylaydigan kuyunchaklar afsus juda kam edi, balki shuning uchun ham uning qo,,li baland kelmagandir. O,,z vatanini sotish,unga xiyonat qilish hammasi ma'naviyat bilan, tarbiya bilan uzviy bog,,langan. Bugun eng ko,,p gapirilgan mavzu tarbiyadir balki. Bu juda muhim ekanligini anglash jarayonlari hali hamon davom etmoqda. Abdulla Avloniy ta'бири bilan aytganda “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo momot, yo najot yo falokat yo saodat yo falokat masalasidir”. [2.44.] Kichik vatanimiz bu



oilamiz, o,,sha kichik vatan uchun uning ichidagi odamlar uchun qancha mehnat qilamiz, ular uchun hamma narsaga tayyormiz. Demoqchimizki, vatanimizni ham huddi shunday sevmog,,imiz kerak. Agar e“tibor beradigan bo,,lsak xonga qarshi turgan insonlar o,,z o,,yida yurt o,,yida emas edi. Kecha kunduz chog,,ir ichib umr o,,tgazayotgan podshohdan ular qo,,rqmay qolishgan to,,g,,ri o,,z vijdonidan qo,,rqmaganlar o,,zga biridan qo,,rqmaydi. Asarning mazmun ko,,lami shu qadar chuqurki, biz kitobxonlar har bir obrazni soatlab tahlil qilishimiz mumkin. Biz ko,,proq ijobiy obrzalarni yoqlaymiz yoki ular tomon intilamiz, ammo har bir obrazning o,,z o,,rni, o,,z mavqei mavjud. Badiiy asarlarda to,,qima obrazlar ham uchraydi, xususan, bu asarda ham. To,,qima obraz o,,zi nima? Mazkur asarda uning ro,,li qay darajada? O,,sha davr yoki vaqt taqazosi sabab deyishingiz mumkin, lekin vatanga xizmat qilish, adolat, sadoqat kabi tuyg,,ular hamma zamonlarda ammo hamma odamlarda ham yo,,q edi. Bir insonning yaxshiligi minglab insonlarni baxtli qilsa bir inson befarqligi butun millat taqdirini qalblarini barbod qiladi. Xayol obrzi orqali Fitrat o,,z qalb so,,zlarini aytdi, ayta oldi. Bu kabi xayol obrazi boshqa bir asarlarda ham uchraydi masalan “Ruhlar isyoni” asarida. Xayol obrazi orqali yozuvchi o,,z so,,zlarini to,,kis yetgazadi kitobxonga. Bunyod qilguvchi ham, vayron qilguvchi ham insonning o,,zi ekanligini to,,la to,,kis tushunamiz. Nodirshohning quydagi so,,zlariga e“tibor beraylik “Mening bir tilagim, yurtigingiz tinchligi” aynan mana shu so,,zlariga ishonishning o,,zi bir mag,,lubiyat edi. Qaysi davrda dushman tinchlik tilagan? Ustamon dushmanlar o,,z maqsadlariga yetishdi, ayb yana o,,zimizda. Ma“rifat, tarbiya, ilm kabi zarur hislatlar bizda yo,,q edi. Fitrat shunday deydi “Zikr qilingan uchta tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi”[3.305]. O“zingiz xohlaganingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg,,ul bo,,lishingiz mumkin va qo,,lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo,,lmasa aqli hamda jismoniy kuchini o,,zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug,,ullanib ko,,p harakat qilish lozim. “Ustoz fikrlari hamma davrlarda birdek aziz bo,,lgan. Axloqni kamolga yetgazish, nafsni tiyish, qalbgaga ezguliklar joylash, kimgadir yordam berish ham kimnidir xafa qilish ham axloqdan tarbiyadan. Axloqiy tarbiya: odam axloqini kamolga yetgazish demakdir, yani odamni shunday tarbiya qilish kerakki , feli va amali o,,ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo,,lsin”.[4.170.] Asarda Islom dinining muqaddas kitobi ham tilga olinadi. Bashariyat olami bu muqaddas kitobdan doim panoh tilagan, buyurilgan ishlarni o,,rgangan. Bu to,,g,,risida hadis ham mavjud. Mana shu muqaddas kitobni o,,qiydilaru ammo chog,,ir ichadilar, ayshu-ishrat qiladilar, odamlar hamma zamonlarda ham bir xil bo,,lishgan mening nazdimda. O“qish bilan bir qatorda uqish ham bor, bizning qahramonlarimiz faqat o,,qiganlar lekin, uqmaganlar va uqish juda muhim aslida. Islom mukammal din insonni qadrlaydigan ammo unga e“tiqod qilguvchilarchi? Guruch ko,,rmaksiz bo,,lmaydi deganlaridek, anglamaganlar mavjud edi va hali ham bu davom etmoqda. Fitrat shunday deydi “Islom olami ahvolini isloh etishda bitta yo,,l bor. U ham bo,,lsa butun Islom olami axloqini isloh etish”. Bu davr mafkurasi faqat shu davrga tegishli bo,,lib qolmadi, o,,zidan keyingi zamonlarga ham ta“sir qildi. “Hind sayyohining qissasi” (Abdurauf Fitrat) [5.21-22.] asar yuqori tanqid ruhida yozilgan, ahvolimizni ko,,rmak uchun yorqin ko,,zgudir. Buxoro Abulfayzxonidan keyin dushmanlar qo,,lida yashnamadi, buni biz “Hind sayyohining qissasi” asaridan bilib olamiz. Abulfayzxon taxtni boy berdi, va bu boy berish boshqa zamonlarga ham ta“sir qildi. Kechaning qusurlari ertani yolg,,iz qoldirmadi, oradan uzoq yillar o“tsada Buxoro yana aziyatga yuz tutdi. Bilim yurti, bilimlilar yurti ko,,plab sinovlardan o,,tdi. Qalin ildizlarimizga qurt tushgan edi, va ular bizni osonlikcha tark qilmadi. Bir podshohning tafakkuri butun millatni yo,,qotishi yoki gullab yashnatishi mumkin. Xulosalar turlicha: lekin inson aql bilan ish ko,,rmog,,i kerak, inson insonni qadrlamog,,i shart. Ustoz bizga axloq va insoniy tuyg,,ulardan saboq beradi.

Har bir obrazdan hayotimiz uchun nimadir olamiz, u xoh yaxshi xoh yomon bo,,lsin. Toj taxt uchun kurashalar nizolar aslida hech biri inson atalmish oliy mavjudotdan ustun emas. Asarda har bir obrazning badiiy yuki bor. Ibrohimiy kabi dono va aqlli bo,,lmoq yaxshi albatta. Bugun yoshlarga aytar



so,,zimiz ko,,p, tinch osuda vatanni sevisht unga fidoyi farzand bo,,lish muhim. Zero vatanni sevmoq iymondandir. Asar insonga manaviy ozuqa bilan bir qatorda ma"suliyat, burch, tarbiya kabi hayotning oltin qoidalarini o,,rgatish maqsadida yozilgan. Aka-ukaning bir-biriga bo,,lgan e"tibori, sevgi va sadoqatdan dars bermoq edi asl maqsad. Uyg,,oq va mudroq qalblar bor asar maqsadi qalblarni uyg,,otmoq, Bugun ertaklar uxlatish uchun emas, uyg,,otish uchun aytilmog,,i, ruhiyat yani ruh yoshlikdan tarbiyalanmog,,i zarur. Badiiy asar esa mana shunday ruhlarga ozuqa beradi.

## References

1. Yunus O,,g,,uz. Amir Temur. –Toshkent, Yangi asr avlodi. 2018. – B. 305.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. (2-jild),Toshkent 1992. – B129.
3. Begali Qosimov. Fitrat chizgilar. –Toshkent, Sharq yulduzi (12-son), 1992. – B.170.
4. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (4-jild), –Toshkent, Ma"naviyat, 2006. – B. 305.
5. Abdurauf Fitrat. Adabiyot qoidalari. Adabiyot muamllimlari va havaslilari uchun qo,,llanma (nashrga tayyorlovchi, so,,zboshi va izohlar muallifi H.Boltaboyev). – T.: O,,qituvchi, 1995. – B.21-23.
6. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. 'Pedagogika nazariyasi (darslik).' T.: Fan va texnologiya 288 (2008).
7. Ибраимов Х. И. Креативность как одна из характеристик личности будущего педагога //Наука, образование и культура. – 2018. – №. 3 (27). – С. 44-46.
8. Ibragimovich X. I. O „ZBEKISTON OLIY TA" LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TEXNOLOGIYALARINI QO „LLASHNING O „ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC METHODOICAL JOURNAL. – 2021. – С. 209-214.
9. Ibragimovich, Ibraimov Kholboy. 'Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system.' International Journal of discourse on innovation, integration and education 1 (2020): 6-15.
10. Maxmutovna T. X. INFLUENCE OF MASS CULTURE ON THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL AND MORAL IMAGE OF THE YOUNG GENERATION //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
11. Mahmutovna T. X. Ways to Form Immunity of Protection from' Public Culture' in Adolescent Students //Kresna Social Science and Humanities Research. – 2022. – T. 3. – С. 115-117.
12. Makhmutovna T. K., Ibragimovna T. I. Specific features of the pedagogical process focused on increasing the social activity of youth //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 6. – С. 165-171.
13. Abdullaeva, B. S., Sobirova, M. A., Abduganiev, O. T., & Abdullaev, D. N. (2020). The specifics of modern legal education and upbringing of schoolchildren in the countries of the post-soviet world. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2706-2714.
14. Oglu, Abduganiev Ozod Tursunboy. 'Pedagogical Conditions And Mechanisms Of Development Of Social Active Civil Competence In Students.' Turkish Journal of Computer and Mathematics Education 12, no. 7 (2021): 433-442.
15. Abduganiyev, O. T. (2022, December). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCE IN STUDENTS. In E Conference Zone (pp. 10-13).
16. Abduganiev O. Developing Student Civil Competency //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
17. Махмудов А. Х., Джураев Р. Х., Ахунжонов А. Т. Дидактический потенциал шахматной игры //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 6-2 (53). – С. 70-71.



18. Махмудов А. Х. ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТА 'ШАХМАТЫ' ЧЕРЕЗ РЕШЕНИЯ ШАХМАТНЫХ ЗАДАЧ: 10.53885/ед. 2022.49. 38.098 Махмудов Абдулхалим Хамидович, д. 2 п. н, зам. директора Узбекского научноисследовательского института педагогических наук им. Кары Ниязи, abdu-hm@ yandex. ru //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 766-768.
19. Джураев Р. Х., Махмудов А. Х., Фефелов В. С. Методология формирования учебнотворческого плана для компетентностной подготовки магистров //Педагогические науки. – 2012. – №. 1. – С. 84-90.
20. Махмудов А. Х., Абдурахмонов З. Б. Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 97-99.

